

KREDIT-MODUL TIZIMIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Sh.K.Abdurasulova

Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim
uslubiyati” kafedrasida o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11050135>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatdan imkoniyatlari ochilgan. Kredit-modul tizimi, uning imkoniyatlari va ushbu tizimning talabalardagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Muloqot kompetensiyasi mazmuniga ham ta‘riflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kredit, modul, tizim, jarayon, tarbiya, kompetensiya, kommunikativ, metod, interfaol, mustaqil, sistema, islohot, imkoniyat, ta‘lim sifati, mustaqil ta‘lim, kreativ, innovatsion, texnologiya.

Аннотация. В статье раскрываются педагогические возможности развития коммуникативных компетенций будущих учителей в условиях кредитно-модульной системы. Подробно освещена система кредитных модулей, ее возможности и значение этой системы в развитии коммуникативной компетентности студентов. Также даны определения содержания коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: кредит, модуль, система, процесс, образование, компетентность, коммуникативный, метод, интерактивный, самостоятельный, система, реформа, возможность, качество образования, самостоятельное образование, творческий, инновационный, технология.

Abstract. Pedagogical possibilities of developing communication skills of future teachers in the conditions of the credit module system are revealed in this article. The credit module system, its possibilities and the importance of this system in the development of students' communicative competence are covered in detail. Definitions of the content of communication competence are also given.

Keywords: credit, module, system, process, education, competence, communicative, method, interactive, independent, system, reform, opportunity, quality of education, independent education, creative, innovative, technology

Bugungi kunda ta‘lim tizimining samaradorligi bevosita o‘qituvchining saviyasiga, talabalarning ehtiyojlariga, o‘quv adabiyotlari mazmuniga va mustaqil ta‘limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilmaga bog‘liq. Binobarin, ilg‘or kadrlarni tayyorlash, ularning raqobatbardoshligini mehnat bozori talablariga mos ravishda oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash ta‘lim muassasalarida tashkil etilgan o‘quv jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Davlatimiz rahbari 2019 yil 8 oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi. Ushbu muhim siyosiy hujjatda “Respublikaning kamida 10 ta oliy o‘quv yurtini xalqaro miqyosda tan olingan tashkilotlar reytingida birinchi 1000 o‘rinni egallagan oliy o‘quv yurtlari ro‘yxatiga kiritish va asta-sekin oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini kredit-modulli tizimga o‘tkazish” belgilangan.

Akademik kreditlar ilk marotaba XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida AQSH universitetlarida joriy etila boshlangan. Ta’limning mazmuni va dasturlarning kreditlarda tashkil etilishi, ta’lim jarayonini mustaqil rejalashtirish, monitoring va baholash tizimlariga tub o’zgarishlar kiritish imkoniyatini berdi hamda ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun keng sharoit yaratdi.

1869 yilda Garvard universiteti Prezidenti, Amerika ta’limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot “kredit soatlari” tushunchasini kiritdi. Shunday qilib, 1870-1880 yillarda kredit soatlari bilan o’lchanadigan tizim joriy etildi. Kredit tizimida o’qish va o’quv dasturlarini o’zlashtirish talabalarga o’quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish va ta’lim texnologiyalarini takomillashtirishga imkon berdi.

Bugungi kunda kredit yig’ish shkalasining joriy etilishi talabaga nafaqat ko’proq erkinlik berdi, balki kelajakda u tanlagan sohada raqobatbardosh mutaxassis bo’lishi uchun o’quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish imkoniyatini ham berdi. Ayni paytda, bu baholash tizimi va ta’lim texnologiyalarining yaxshilanishiga olib keldi.

Kredit-modul tizimini yaratish uchun o’tgan asrning 70-yillaridan boshlab, Yevropadagi barcha oliy o’quv yurtlarining integratsiyasini ta’minlash, yagona oliy ta’lim standartini yaratish, talabalar va o’qituvchilarning harakatchanligini o’rnatish, diplomlarni tan olish, talabalarning malaka va ko’nikmalari, bilimlarini baholashni birlashtirish bilan bog’liq bir qator muammolarni hal qilishga harakat qilindi. Ushbu say-harakatlar natijasida 1999 yilda Italiyaning Boloniya shahrida 29 mamlakat vakillari tomonidan Boloniya Deklaratsiyasi imzolandi.

Bugungi kunga kelib, Boloniya jarayonida 50 dan ortiq mamlakat ishtirok etmoqda. MDH mamlakatlari orasida Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova, Armaniston, Gruziya, Qozog’iston va Belarus Respublikasi bor.

Boloniya tizimi bo’yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Odatda, bakalavr darajasiga tayyorgarlik kamida uch yil, magistr darajasi esa 1-2 yil davom etadi.

Boloniya deklaratsiyasida ko’rsatilganidek, kredit-modulli tizim asosan, mustaqil ta’limga e’tibor qaratgan holda ikkita funktsiyani bajarishga xizmat qiladi:

birinchisi, talabalar va o’qituvchilarning harakatchanligini, ya’ni bir oliy o’quv yurtidan boshqa universitetga to’siqsiz, erkin o’tishini (o’qish yoki ishlashga o’tishni) ta’minlaydi;

ikkinchidan, talabaning tanlangan yo’nalish yoki mutaxassislik bo’yicha barcha ilmiy va metodik faoliyati uchun o’quv yuklamasi aniq hisoblanadi. Kreditlar miqdori talabaning tanlangan dasturda qancha o’zlashtirganligini ko’rsatadi.

Ta’limni tashkil etish jarayoni bo’lgan kredit-modulli tizim – bu modulli o’qitish texnologiyalari va kreditni o’lchashga asoslangan baholash modelining kombinatsiyasi hisoblanadi. Uni umuman amalga oshirish ko’p qirrali va murakkab tizimli jarayonidir. Kredit-modul tamoyili ikkita asosiy masalaga ahamiyat beradi, ya’ni: talabalarning mustaqil ishini ta’minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit modulli ta’lim texnologiyasini joriy etish bo’yicha chet el universitetlarining tajribasini tahlil qilish, bu jarayon birinchi navbatda universitet mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratilishi; o’quv jarayonini individuallashtirishni maksimal darajada oshirish va qulay muhit yaratishi, har bir talabaning rivojlanishini maksimal darajada oshirish uchun shaxsga yo’naltirilgan o’quv traektoriyalarini ishlab chiqish, shuningdek, shakllanish darajasi ko’rsatkichlarini aniqlash uchun talabalarning ilmiy yutuqlari darajasini diagnostika qilish va monitoring qilishning doimiy tizimini joriy etish kerak degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

A.S. Andrienko o‘z tadqiqotida ta’kidlaganidek, amalga oshirilgan texnologiya quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olishi kerak:

1) talabalarning kasbiy yo‘naltirilgan faoliyati tizimidagi individual va ijodiy komponentlar;

2) o‘quv fanlarining bo‘limlari va o‘quv kasbiy dasturlarining sikllari bo‘yicha o‘qitish mazmunini modulli qurish;

3) kredit birliklari tizimida talabaning kompetensiyalarini shakllantirish darajasini kredit modulli baholashni, shu jumladan, qanday qilib yaxlit baholashni o‘z ichiga olgan o‘quv jarayonini reyting-nazorat qilish.

Ushbu qoidalar kredit birliklaridan foydalanishga asoslangan reyting texnologiyalarini kredit to‘plash tizimlariga o‘tishning o‘quv va uslubiy shartlari sifatida ko‘rib chiqilishi kerak .

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini kredit-modull tizimida tashkil etish bo‘yicha savollar, muammolar, tavsiya va takliflar V.O‘rinov, B.Usmonov, R.Xabibulaev, Sh.Mustafaqulov ishlarida tahlil qilingan hamda yoritib berilgan.

Kredit-modulli tizim – bu mazmunli modullarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan talabaning o‘quv yukini o‘lchov birliklari sifatida modulli o‘qitish texnologiyalari va ECTS kreditlarining birligiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish modeli bo‘lib hisoblanadi.

ECTS (European Credit Transfer System) 1989 yilda Erasmus dasturi doirasida joriy etilgan bo‘lib, Socrat dasturining bir qismi hisoblanadi. Yevropa kredit tizimi muvaffaqiyatli sinovdan o‘tib, ayni paytda butun Yevropa oliy ta’lim muassasalari ECTS tizimidan foydalanmoqda.

Dastlab, ECTS talabalarni bir oliy ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazishda kreditlarni hisoblash va o‘tkazish uchun foydalanilgan. Ushbu tizim boshqa oliy ta’lim muassasalarining tan olinishiga yordam bergan va shu tariqa Yevropa oliy ta’lim muassasalarida sifatning oshishiga va talabalar mobilligi miqyosining kengayishiga olib kelgan. Kredit tizimining ahamiyati oshib borishi natijasida 1999 yil iyunda imzolangan Bolonya deklaratsiyasining eng muhim vazifalaridan biri sifatida mintaqaviy, milliy va Yevropa darajasidagi tizimga aylandi.

Kredit-modul tizimi – talaba o‘quv yuklamasini o‘lchash birliklari sifatida modulli o‘qitish texnologiyalari va kreditlari birligiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish modelidir. O‘quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimi talabani o‘quv dasturlarining mazmunini sifatli o‘zlashtirishga majbur qiladi va shu bilan birga O‘zbekiston va xorijdagi turli ta’lim muassasalarida o‘qish natijalarini ob‘ektiv tan olishni ta’minlaydi, maktab bitiruvchilari oliy o‘quv yurti uchun zarur bo‘lgan yakuniy imtihonlarga jiddiyroq tayyorgarlik ko‘rishiga imkon beradi.

Ta’lim jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimi – modulli o‘qitish texnologiyalari va ta’lim bo‘linmalarining kreditlari yoki kreditlari kombinatsiyasiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish modelidir.

Ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lgan kredit-modulli tizim – bu modulli o‘qitish texnologiyalari va kreditni o‘lchashga asoslangan baholash modelining kombinatsiyasi. Uni umuman amalga oshirish ko‘p qirrali va murakkab tizim jarayonidir. Kredit-modul tamoyili ikkita asosiy masalaga ahamiyat beradi: talabalarning mustaqil ishini ta’minlash; talabalar bilimni reyting baholash.

B. Usmonov va R. Xabibullaevning ta’kidlashicha, kredit-modulli tizim – bu mazmunli modullarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan talabaning o‘quv yukining o‘lchov birliklari sifatida modulli o‘qitish texnologiyalari va ECTS kreditlarining birligiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish modelidir.

V. O‘rinovning fikricha, o‘quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimi talabani o‘quv dasturlarining mazmunini sifatli o‘zlashtirishga majbur qiladi va shu bilan O‘zbekiston va chet eldagi turli ta’lim muassasalarida o‘qish natijalarini ob’ektiv tan olishni ta’minlaydi, maktab bitiruvchilari oliy o‘quv yurti uchun zarur bo‘lgan yakuniy imtihonlarga jiddiyroq tayyorgarlik ko‘rishga imkon beradi.

Olimlarning ta’kidlashicha, ta’lim jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimi – modulli o‘qitish texnologiyalari va ta’lim bo‘linmalarining kreditlari yoki kreditlari kombinatsiyasiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish modelidir.

Kredit-modulli o‘qitish tizimi – har besh yilda bir marta malaka oshirish talabiga muvofiq rejalashtirilgan bo‘lib, asosan, har bir talabanning kredit-modulli o‘quv dasturlari tarkibiga mos keladigan bir qator kreditlarni mustaqil ravishda olishiga asoslanadi.

Kredit-modulli tizimning asosiy vazifalari quyidagilar:

- o‘quv jarayonini modulli tashkil etish;
- bir mavzu, xarajatlarni belgilaydigan kurs (kredit);
- talabalar bilimni baholar asosida baholash;
- talabalarga individual ravishda o‘z o‘quv dasturlarini yaratish imkoniyatini berish;
- ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olish ulushini oshirish;
- ta’lim dasturlarining qulayligi va ularni mehnat bozorida mutaxassisga bo‘lgan talabga qarab o‘zgartirish imkoniyati kabilar.

F. Litvinkoning fikricha, talabalarning muloqot kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan kredit-modulli yondashuv quyidagilarga imkon beradi:

- o‘zgaruvchan vaziyatga muvofiq materialni moslashuvchan ravishda o‘zgartirish va birlashtirish;

- talabalarning mustaqillik darajasini oshirish, ta’lim jarayonini personifikatsiya qilish, individuallashtirish;

- masofaviy ta’limga o‘tishga imkon berish;

- bir vaqtning o‘zida turli kompetentsiyalarni shakllantirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

- talabalarning tashabbusini oshirish.

A.V. Xutorskiyning muloqot kompetentsiyasini taqdim etishning faoliyatga asoslangan shakli e’tiborga loyiqdir. Olim takidlaydi: “O‘rganishga o‘tish uchun kompetentsiyalarni faoliyatga asoslangan shaklda belgilash kerak”.

Muloqot kompetentsiyani faoliyat shaklida shakllantirish quyidagilardan iborat:

- o‘zingizni og‘zaki va yozma ravishda taqdim etish uchun anketa, ariza, rezyume, xat, tabriklar yozish;

- madaniyatlararo muloqot sharoitida, madaniyatlar muloqoti rejimida o‘z guruhingiz, ta’lim muassasangiz, mamlakatingiz, korxonangiz, kompaniyangizni vakillik qilish, buning uchun chet tilini bilishdan foydalanish;

- Og‘zaki taqdimot qilish, savol bera olish, ta’lim dialogini to‘g‘ri o‘tkazish;

- nutq faoliyatining turli turlariga (monolog, dialog, o‘qish, yozish), lingvistik va lingvistik kompetentsiyalarga ega bo‘lish;

- guruhda birgalikda ishlash usullarini, aloqa vaziyatlarida harakat usullarini o‘zlashtirish; murosallarni izlash va topish qobiliyati;

turli milliy jamoalar va ijtimoiy guruhlarning tarixiy ildizlari va an’alarini bilishga asoslangan ko‘p madaniyatli, ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatda ijobiy muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lish .

Kommunikativ kompetentsiya mutaxassisning faoliyatga jalb qilinishini belgilaydigan va umuman butun shaxsning rivojlanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayonida shakllanadigan ajralmas shaxsiy sifat sifatida qaraladi.

L. Barannikovning fikricha, muloqot kompetentsiyasi – bu muvaffaqiyatli muloqot qilish va bir kishining boshqalar bilan o‘zaro munosabati ko‘nikmalarining kombinatsiyasi. Ushbu ko‘nikmalarga nutq savodxonligi, notiqlik mahorati va har xil turdagi odamlar bilan aloqa o‘rnatish qobiliyati kiradi. Shuningdek, muloqot kompetentsiyasi ma’lum bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishdir. Bu kasbiy muvaffaqiyatning asosiy omili bo‘lib, u mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasbiy sifatdir, chunki bu sizga aloqa sheriklari bilan sifat jihatidan yangi sivilizatsiya darajasida o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishga imkon beradi, bu esa o‘z navbatida ish natijalarini yaxshilash samaradorligiga ta’sir qiladi .

Y, Burkovaning ta’kidlashicha, kredit-modulli o‘qitish chet tilidagi shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyati va tayyorligini anglatuvchi muloqot kompetentsiyasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ma’lumki, muloqot kompetentsiyasining asosiy tarkibiy qismlari til, nutq va ijtimoiy-madaniy kompetentsiyadir. Talabalarning muloqot kompetentsiyasini shakllantirish uchun modulli o‘qitishni tashkil etish turli mavzular bo‘yicha tugallangan bloklardan foydalanishga asoslangan bo‘lishi kerak. Har bir modul uchta bo‘limni o‘z ichiga olishi mumkin: kirish mashqlari, o‘qish va suhbatlashish, hisobotlar va taqdimotlar. Birinchi bo‘limda (kirish mashqlari) o‘rganilayotgan materialga qiziqish uyg‘otish, talabalarning ushbu sohadagi bilim darajasini aniqlash va ularni taklif qilingan mavzu bo‘yicha yangi lug‘at bilan tanishtirishga imkon beradigan bir qator kirish mashqlari bo‘lishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, vazifalar talabalarni model mavzusini chuqurroq o‘rganishga va ularni mustaqil ravishda qo‘shimcha mashqlarni bajarishga undashi kerak .

Bugungi kunda kredit-modull tizimi avvalambor, mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga ta’limning amaldagidan ko‘ra ancha mukammal, zamonaviy lekin hamma uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birligini olib kiradi. Unga ko‘ra oliy ta’lim muassasalari (OTM) o‘quv dasturlari muayyan o‘quv natijalarini ko‘zlovchi turli fan va modullarga bo‘linadi. Har bir fan yoki modull esa undagi o‘qish yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o‘rtacha 5.6 yoki 7.5 kreditlarda aks etishi mumkin, bunda talaba esa, har semestr, o‘quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to‘plab borishi va tegishli miqdordagi kreditlarni to‘plagandan so‘ng unga bakalavr yoki magistr darajasi berilishi belgilanadi.

ECTS tizimidan foydalanish natijasida quyidagi afzalliklarga ega ekanligi namoyon bo‘ldi:

- oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida soddalashgan malakaning tan olinishi;
- talaba yuklamasining bajarilishi shaffofligi;
- oliy ta’lim tizimidagi islohotlarga moslashuvchanligi;
- ta’lim trayektoriyasida o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishning moslashuvchan imkoniyatining kengligi.

ECTS kredit-modull tizimida bir yillik kreditlar miqdori 60 tani tashkil etadi. Bir o‘quv yili 2 semestrda iborat ekanligini hisobga olsak, talaba o‘qishi davomida har semestrda 30 kredit to‘plab borishi zarur. Bakalavr dasturi odatda 4 yil ekanligini hisobga olsak, talaba ushbu darajani qo‘lga kiritish uchun jami 240 kredit, magistratura dasturini tugallashi uchun esa, 120 kredit to‘plashi kerak bo‘ladi.

Kreditlar shunchaki raqamlar emas, har bir kredit talaba bajarishi kerak bo‘lgan ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasini va talaba buning natijasida esa, muayyan o‘quv natijalariga erishganligini bildiradi. Ya’ni ECTS kredit-modull tizimi tarkibi ikki zaruriy elementdan iborat: o‘qish yuklamalari; o‘quv natijalari. Talaba shu elementlarni bajargandagina o‘sha fan bo‘yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo‘lga kiritishi mumkin.

ECTS kredit-modull tizimida 1 kredit o‘rtacha 25-30 akademik soatlik o‘qish yuklamasiga teng, ya’ni; talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni qo‘lga kiritishi uchun ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasini (“learning workloads”) bajarishi zarur. O‘qish yuklamasi – bu talaba muayyan o‘quv natijalariga erishishga qaratilgan barcha tizimli o‘qish mashqlari va harakatlarini bajarish uchun kerak bo‘ladigan vaqtdir.

Bu degani yuqorida 1 kredit uchun belgilangan 25-30 soatlik o‘qish yuklamasi – talaba fanni o‘rganish uchun sarflashi ko‘zda tutilayotgan jami o‘qish harakatlari jamlanmasidir. Unga nafaqat dars vaqti, balki talabaning fanni o‘rganish uchun uyda va kutubxonada sarflagan vaqti, imtihonlar vaqti, qo‘yingki, talaba ushbu fanni o‘zlashtirish uchun barcha tizimli harakatlari vaqtini qamrab oladi.

1 kredit o‘qish yuklamasi 25-30 soat vaqt oralig‘ida aynan necha soat bo‘lishini odatda har bir OTM o‘zining ichki qoidalarida belgilaydi va bu qoidalar OTM veb sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi. Agar fan 6 kreditli bo‘lsa, talaba ushbu fan bo‘yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo‘lga kiritish uchun semestr davomida 150-180 soatlik o‘qish yuklamasini bajarishi kerak bo‘ladi ($25 \cdot 6 = 150$; $30 \cdot 6 = 180$). Shunday ekan kredit-modull tizimini joriy etgan OTMlarda talabalar har bir fan uchun belgilangan kreditlar miqdoriga qarab turib, o‘qishlari boshlanmasdan, har bir fanni o‘qish va o‘rganishga qancha vaqt sarflashlari kerakligi haqida tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin. Bu ham ta’limda shaffoflikning bir ko‘rinishidir, amaldagi oliy ta’lim tizimida esa, talabalar odatda bunday ma’lumotga ega bo‘lmaydi.

ECTS kredit-modull tizimida talaba fanlar va modullar bo‘yicha kreditlarni qo‘lga kiritishi uchun o‘qish yuklamalarini bajarishning o‘zi kifoya qilmaydi, u tegishli miqdordagi o‘qish yuklamalarini bajargandan so‘ng ular asosida muayyan o‘quv natijalarini ham ko‘rsata olishi zarur. O‘quv natijalari – bu talaba o‘quv yuklamalarini bajarish natijasida o‘rganishi, tushunishi va qila olishi kutilayotgan bilim va ko‘nikma jamlanmasidir.

ECTS kredit-modull tizimida har bir o‘quv dasturi (bakalavr, magistratura), fan yoki modull o‘zining o‘quv natijalari oldindan aniq belgilab olinishi va ushbu o‘quv natijalari ro‘yxati talabalarga oldindan taqdim etilishi zarur. Shunda talabalar muayyan o‘quv dasturi yoki undagi muayyan fanni o‘rganish unga mutaxassis sifatida nimalar bera olishi haqida oldindan tushunchaga ega bo‘lgan holda o‘qishni boshlaydi. Shunda o‘quv natijalari haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lgan talaba ham, o‘qituvchi ham dastur yoki semestr davomida barcha imkoniyatlarini shu natijalarga erishishga qaratadi.

Kredit-modull tizimi ikkita asosiy vazifani bajaradi: Birinchidan, boshqa oliy ta’lim muassasidan (yoki boshqa fakultetda) olingan kreditlar asosida akademik mobillik va moslashuvchanlik shartlari asosida o‘qishni davom ettirish, ikkinchidan, akkumulyativ ta’lim. Talaba ta’limni turli vaqt oralig‘ida, universitetlarni o‘zgartirishi va turli davrlarda olishi mumkin. Agar ba’zi aniq natijalarning amal qilish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa (masalan, ushbu kursning eskirganligi sababli), talaba tegishli akademik daraja (bakalavr, magistr)ni olish uchun zarur bo‘lgan miqdorni yig‘ganiga qadar kreditlar to‘planadi. Albatta, kreditni topshirish va kreditlarni to‘plash imkoniyati universitetlar o‘rtasidagi ishonch va o‘quv dasturlarining muvofiqligiga bog‘liq.

Dastur yoki fan o‘quv natijalari quyidagi asosiy savolga javob bera olishi kerak: talaba dasturni yoki undagi muayyan fanni tamomlagandan so‘ng unda o‘rgangan bilimlari asosida nimalar qila oladi yoki qila olishi kerak?

Ushbu savoldan kuzatganingizdek, o‘quv natijalari – bu talaba dastur yoki undagi muayyan fan davomida qo‘lga kiritgan bilimlar ro‘yxatidan iborat emas, aksincha, unda talaba o‘sha bilimlar asosida nimalar qila olishi ko‘rsatilishi zarur. ECTS kredit-modul tizimidagi bu talab oliy ta’limga amaliy, pragmatik yondashuvni shakllantiradi.

O‘quv natijalarini oldindan belgilab olishning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘quv dasturini mutaxassislik uchun taalluqli bo‘lmagan, ahamiyatsiz fanlar va modullardan tozalab boruvchi filtr vazifasini ham o‘taydi. Agar fan va modulda erishilishi kutilayotgan o‘quv natijalari talabning mutaxassis bo‘lib yetishi uchun ahamiyati bo‘lmasa va shunga hizmat qilmasa, ushbu fan o‘quv dasturini tark etishiga to‘g‘ri keladi.

Talaba va o‘qituvchilarda ushbu umumiy o‘qish yuklamasining aynan qancha qismi dars, auditoriya soatlariga to‘g‘ri keladi, degan savol tug‘ulilishi mumkin. ECTS kredit-modull qoidalari bu masala bo‘yicha aniq talab yoki chegara belgilamagan. Bunga ko‘p sabablarni keltirish mumkin. Masalan, ta’lim jarayonlari yoki modul har doim ham o‘z tarkibiga auditoriya soatlarini qamrab olavermaydi, bunga misol qilib, o‘quv dasturidagi bitiruv oldi amaliyoti, diplom ishi va shu kabi ta’lim elementlari hamda modullarni keltirishimiz mumkin.

Demak, bunday ta’lim elementlarida auditoriya soatlari bo‘lmaydi, lekin ECTS kredit-modull tizimida faoliyat yuritadigan OTMLar amaliyotini tahlil qilganimizda, ularning aksariyatida auditoriya soatiga ega bo‘lgan fan va modullarda auditoriya va mustaqil o‘qish soatlari nisbati o‘rtacha 40 foizga 60 foiz ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bu nisbat boshqacha qilib aytganda 1:1,5 ga to‘g‘ri keladi. Ya’ni, talaba muayyan fan bo‘yicha belgilangan har 1 soat dars uchun unga darsdan tashqarida bir yarim soat mustaqil o‘qishi va tayyorlanishi kerak bo‘ladi.

Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o‘qish yuklamasi belgilangan bo‘lsa, undan 12 soati ($30 \cdot 40 \% = 12$) auditoriya soatlari, 18 soati ($30 \cdot 60 \% = 18$) esa talabning mustaqil o‘qish soatlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o‘qish yuklamasini aniqlaydigan bo‘lsak, talaba ushbu fan bo‘yicha belgilangan kreditlarni qo‘lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ($(30 \cdot 6) \cdot 40 \% = 72$) auditoriya darslarini, 108 soat ($(30 \cdot 6) \cdot 60 \% = 108$) uyda va kutubxonada mustaqil o‘qish yuklamasini bajarishi zarur bo‘ladi. ECTS kredit-modull tizimida bir auditoriya akademik soat 45-60 daqiqaga teng.

Yuqoridagi qoidalardan shuni tushunishimiz mumkinki, ECTS kredit-modull tizimida talabning bilim olish vaqti tushunchasi dars vaqti tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba o‘qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o‘lchanadi. Unda yana bilimning manbai faqat o‘qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi. Qisqacha aytganda, kredit-modull tizimida o‘qish vaqti tushunchasiga o‘qituvchi nuqtai nazaridan emas, balki talaba nuqtai nazaridan yondashiladi.

Shu bois, zamonaviy dinamik hayot quyidagi qobiliyatlarga ega bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari mutaxassislarini tayyorlashni talab qiladi:

mavjud muammoli masalalarni tahlil qilishni hisobga olgan holda o‘zgaruvchan hayot va kasbiy vaziyatlarda tezda moslasha oladilar;

bilimlarni doimiy ravishda yangilashga, o‘zini o‘zi rivojlantirishga, yangi bilimlarni yaratishga, kasbiy vazifalarni hal qilish uchun bilimlarni amalda mohirona qo‘llashga tayyor;

borayotgan axborot oqimlarini boshqarish, axborotni tahlil qilish, o‘zgartirish, o‘z kasbiy faoliyatida va o‘z hayotida qo‘llash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;

tanqidiy ijodiy fikrlashga ega bo‘lish;
xushmuomala, muloqotli, turli jamoalarda ishlashga qodir;
maqsadlariga erishishda faol kabilar.

Aynan, shunday mutaxassislar zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, shuningdek, o‘z korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining raqobatbardoshligiga hissa qo‘shishi mumkin, shuningdek, ular o‘z bizneslarini yaratishlari, ish profilidagi har xil o‘zgarishlarga moslashishlari va o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari mumkin. Shu sababli, oliy ta‘im tizimi talabalarning o‘quv jarayonini ifoda etilgan tezislar kontekstida tashkil etishning muhim muammosiga duch kelmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, jamiyat kelajakdagi mutaxassislarni axborot oqimiga mustaqil yo‘naltirish, ularning bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirish, har qanday o‘zgarishlarga ijodiy yondashish, paydo bo‘layotgan muammolarni noan‘anaviy va sifatli hal etish darajasiga olib chiqishni maqsad qilgan.

B. Usmonov, V. O‘rinovlarning ta‘kidlashicha, o‘quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimi talabani oliy ta‘lim mazmunini sifatli o‘zlashtirishga majbur qiladi va shu bilan turli ta‘lim muassasalarida va Yevropa mamlakatlarida o‘quv natijalarining ob‘ektiv tan olinishini ta‘minlaydi .

Shuni ta‘kidlash mumkinki, kredit-modulli o‘qitish ta‘lim sohasi evolyutsiyasi jarayonida shakllangan va ta‘lim faoliyatining eng samarali shakllari va vositalarini uzoq vaqt izlash natijalaridan biridir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.uza.uz
5. Баранников Л.В. Содержание обшего образования: Компетентностнўй подход - М.; ГУ ВШЕ, 2002. - 51с.
6. Хуторской А.В. Ключевўе компетенции как компонент личностно- ориентированной парадигмў образования FF Народное образование. — 2003.-№2.-С. 58-64
7. Bolonskiy protsess: poisk obhnosti evropeyskix sistem vo‘sshego obrazovaniya (proekt TUNING) G‘ Pod nauch. red. V.I.Baydenko. - M.: Issledovat. tsentr problem kach-va pod-ki spets-ov, 2006. — 211s.
8. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
9. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. – T., Ma‘naviyat, 2020 y.